

INDEKS 1072



ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL



URGANCH
DAVLAT
UNIVERSITETI

12/1

2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda
PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

12/1.2023

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdior, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G'oipnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 2023 12/1 (199)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-
noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

Tilshunos olim A. Boboyeva *gardaniga olmoq, gardaniga ortmoq, gardaniga yuklamoq, gardaniga tushmoq, bo'yniga olmoq, bo'yniga tushmoq, bo'yniga ortmoq, bo'yniga yuklamoq, ustiga olmoq, yelkasiga olmoq kabi gardan, bo'yin, ust va yelka* so'zlari yordamida shakllangan iboralarni "zimmasiga olmoq" iborasi-ning xalq nutqida qadimdan qo'llanilib kelgan variantlari deb hisoblaydi.¹ Olima o'sha davr matbuot tili materiallarini o'rganib, "zimmasiga olmoq" iborasining boshqa variantlardan qo'llanish darajasiga ko'ra ancha yuqori ekanligini aniqlagan. Buning sababini u quyidagicha izohlashga intiladi: "asli arab tilidan yozma nutq orqali o'zlashgan "zimma" so'zi bilan shakllangan variantlarning hozirgi ona tilimizga, xususan, gazeta tiliga juda singib ketib, qo'llanish darajasi jihatidan ustun chiqishining boisi, dastlab, u so'z (zimma)ning umumiy salmog'i, undan anglashilgan serqirra ma'no xususiyati bilan xarakterlanadi. Chunki genetikasi jihatidan arab tiliga mansub zimma so'zining ma'nosi gardan, bo'yin, ust va yelka so'zlarining ma'nosidan ancha keng, serqirra va umumiyligi bilan belgilanadi."²

O'TFLda sakkizta (dodini bermoq, jon kirdi – jon kirgizmoq//jon kiritmoq, ishga solmoq, yo'lga solmoq, ko'z qismoq, ko'ngliga tugmoq, o'ziga kelmoq, qo'lga olmoq) to'rt ma'noli polisemantik ibora izohlangan. Nafaqat frazeologik birliklar, balki tildagi barcha lisoniy birliklar antropotsentrik nuqtayi nazardan, tahlilga tortilsagina kerakli natijaga erishiladi. Shu jihatdan iboralar tizimi ham har bir xalqning milliy boyligi, o'zida katta ma'naviy boylik, xalqning yo'qotishi mumkin bo'lmagan qadriyatlarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega bo'lgan nomoddiy mulkidir.

O'zbek tilidagi ko'p ma'noli iboralar tizimini antropotsentrik paradigma doirasida o'rganishda ularning lingvokulturologik, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik jihatlariga ham e'tibor qaratishni, shuningdek, iboralar mustaqil so'zlarning obrazli turg'un birikuvi bo'lishidan tashqari milliy mentallik, etnomadaniy, etnosotsiologik, kognitiv, kraetiv, akkumulativ, aksiologik, estetik, emotiv vazifalarni bajarishini nazardan soqit qilib bo'lmaydi. Bular ayniqsa, somatik iboralarda ko'proq namoyon bo'ladi.

Frazema vazifasi davriy madaniyatga xoslangan semantik maydonning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Tilimiz lug'aviy fondi mavhumligining universal mohiyati ifoda yo'sinida barqarorlik kasb etadi va ma'no siljishini hosil qiladi. Milliy-madaniy yaxlitlik iboraning tabiatini ochib beradi. Mazmun kengayishining murakkab tizimini anglash aynan odam va olam bog'liqligini yaxlitlikda tasavvur etish ehtiyojining hosilasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, somatik frazema til madaniyatining oliy bosqichi – nutqiy ifoda bilan bog'liq. Unda antropologik shakl vosita vazifasini bajaradi hamda semantik talabning ijodiy mantig'ini belgilaydi. Unda paralingvistik komponentlar substansiyadan ajralgan holda, ijodiy qayta shakllanadi hamda aniqlovchi mohiyat darajasiga ko'tariladi. Kommunikativ aloqa tasavvur va taassurotlarni bir-biriga ulaydi hamda vazifadoshlik nuqtayi nazaridan barqarorlik kasb etadi. Ayni paytda, muammoga semiotik va funksional yondashuv masalani to'g'ri hal qilishning kafolati hisoblanadi. Zero, somatik ifoda ham madaniyat, ham ma'no, ham shaklga daxldor tushuncha sanaladi.

Achilova Risolat Azamovna (Buxoro davlat universiteti "Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik" kafedrası dotsenti, PhD; risolat_lola@mail.ru)

LINGVOKULTUROLOGIK METODLAR TARAQQIYOTI

Annotatsiya. Ushbu maqola lingvokulturologiyaning metodlariga bag'ishlangan bo'lib, unda tilga oid hodisalarni o'rganishda uning madaniyat bilan munosabatini yoritish muhim ahamiyat kasb etganligi, antropotsentrik paradigma yo'nalishlaridan biri lingvokulturologiya fanining eng asosiy maqsad va vazifasi milliy madaniyatning til bilan o'zaro munosabati masalasini yoritishga qaratilgan.

Аннотация. Данная статья посвящена методам лингвокультурологии, в которых при изучении явлений, связанных с языком, важное значение приобретает освещение его взаимоотношений с культурой, одним из направлений антропоцентрической парадигмы является конечная цель и задачи лингвокультурологической науки, направленные на освещение вопроса взаимодействия национальной культуры с языком.

Annotation. This article is dedicated to the methods of linguacultural, in which in the study of phenomena related to language, the coverage of its relationship with culture becomes important. One of the directions of the anthropocentric paradigm is the ultimate goal and objectives of linguo-culturological science, aimed at highlighting the issue of interaction between national culture and language.

¹ Бобоева А. Газета *зиммасига олмоқ* иборасининг вариантлари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1978, 2-сон, 56–58-бетлар.

² Shu manba. 57–58-бетлар.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, metod, madaniyat, antropotsentrik paradigma, lingvistika, dominant tahlil, klaster tahlil.

Ключевые слова: лингвистическая культура, метод, культура, антропоцентрическая парадигма, лингвистика, доминантный анализ, кластерный анализ.

Key words: linguistic culture, method, culture, anthropocentric paradigm, linguistics, dominant analysis, cluster analysis.

Inson bilishining har qanday sohasida fan: 1) o'rganish obyekti; 2) tadqiq predmeti; 3) maxsus lingvistik atamalar to'plamiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, fanda tadqiqot usullari ham muhim ahamiyat kasb etadi [Xrolenko. 2006.133]. Metodologiya (yunoncha *metodos* – tadqiqot yo'li va *logos* – so'z, ta'limot) til fanidagi tadqiqot tamoyillari haqidagi ta'limot sifatida tushuniladi. Tilshunoslikdagi metod (yunoncha *metodos* – tadqiqot usuli) esa tilning u yoki bu tomonlarini o'rganish uchun texnik vosita sifatida ma'lum nazariy tamoyillarga asoslangan individual usullardir.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiyaning eng zaif nuqtasi uning metodologiyasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir. 20-asr oxiri – 21-asr boshlarida lingvokulturologiya bo'yicha olib borilgan katta hajmli va keng ko'lamli ishlarga qaramay, til va madaniyat bilan aloqador muammolarning ayrim jihatlari bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati mavjud bo'lib turibdi [Ivanova. 2009.108–109]. Ushbu lingvomadaniy tadqiqotlarni amalga oshirishda quyidagilar muhim sanaladi: tushunchalar, madaniy belgilar va madaniy komponentlar. Madaniyat bilan bog'liq komponentda lingvomadaniy birliklikning axborot va ma'no qismlari ahamiyatlidir.

Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatga moddiy jihatlar va iqtisodiy rivojlanish ta'sir ko'rsatadi. Chunki "inson faoliyatining natijalari til vositasida amalga oshiriladi". Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatga madaniy birlikning ko'rinishi, lug'atlar, badiiy tafakkur rivoji, ijtimoiy-siyosiy tuzum, turmush tarzi, urf-odatlar, tabiiy resurslar va geografik xususiyatlar ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu yondashuv nafaqat madaniy komponentni mahalliyashtirishga, balki madaniy belgilar manbasini ta'kidlashga imkon beradi, bu esa, o'z navbatida, tilda aks ettirilgan madaniyatning muhim sohalarini aniqlash imkonini beradi. Diskurs tahlili matn lingvistikasi, stilistika, psixolingvistika, semiotika, ritorika va falsafa bilan bog'liq bo'lgan fanlararo bilim sohasidir. Diskurs tahlili jarayonida matnning nafaqat leksik va sintaktik tuzilishi, balki matn qachon, qayerda, kim tomonidan yozilganligi ham hisobga olinadi, kimga qaratilgan, nima sababdan, qanday maqsadda, kimning manfaatlarini ko'zlab, muallifning baholovchi, mafkuraviy munosabati qanday bo'lganligi e'tiborga olinadi [Xrolenko. 2006.138].

Bugungi kunda lingvomadaniy tadqiqotlar o'tkazishning boshqa tasdiqlangan usullari mavjud. V.V. Krasnix milliy-madaniy komponentni aniqlash orqali lingvomadaniy tahlilni amalga oshirishni taklif qiladi. Bu milliy ongning jihatlarini, so'zlayotgan shaxs ongida saqlanadigan va muloqotda namoyon bo'ladigan xususiyatlarni belgilovchi komponentdir. Mazkur xususiyatlar ona tilida so'zlashuvchilarning kognitiv bazasi bilan bog'liq bo'lgan madaniy makonda, milliy presedent hodisalar tizimida, milliy stereotiplar qatorida, ongning ramka tuzilmalarida va yuzaki – vakillar o'rtasida tuzilgan birlashmalarda o'z aksini topadi. Muloqot jarayonida, milliy lingvistik-madaniy jamoalarning xususiyatlarini tadqiq etishda V.S.Krasnix madaniyat kodeksi tushunchasidan foydalanadi. Lingvomadaniy tahlil madaniyatni semiotik jihatdan o'ziga xos "til" sifatida ko'rib chiqishi mumkin, degan nuqtayi nazarga asoslanishi mumkin. Bir qator o'zaro matnlar birlashib yaxlit matnlararo madaniy makonni tashkil qiladi.

V.N.Teliya fikricha, madaniy matnda uni ifodalovchi madaniy birlik va belgilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bular muayyan madaniy vaqt orasida ma'lum o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Hukmron hokimiyat mafkurasi madaniy belgilar tizimiga u yoki bu darajada ta'sir o'tkazishi mumkin. Marosim, mif, din, folklor kabilarda madaniy belgilar yaqqol namoyon bo'ladi. Madaniy tezaurus matnning konseptual mazmunining taksonomik tasviridir. Matnlardan olingan madaniyat tezaurusi uning toifalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan "madaniyat doimiylari"ni ifodalovchi ramziy shakllarni aniqlash uchun asosdir. Madaniyat kodi matnlarning taksonomik asosidir. U yoki bu kodlarning taksoni bo'lgan belgilar majmui madaniyat ramzi deb ataladi. Madaniyat timsolini tadqiq qilish mumkin, chunki u "eng oz rivojlangan metallingvistik tushuncha bo'lib, batafsil tushuntirishni talab qiladi". Tabiiy til birliklarining ma'nosi va madaniyat "tili" belgilarining madaniy semantikasi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjud [Teliya. 1999.24]. Teliya fikricha, lingvomadaniy tahlilning yakuniy maqsadi – madaniy konnotasiyalar tavsifi asosida lingvomadaniy hamjamiyat subyektlarining "kundalik" madaniy va lingvistik kompetensiyasini aniqlashdir. Lingvomadaniy birliklar til belgilarining konseptual mazmunini bilan bevosita bog'liq bo'lib, tildan foydalanish jarayonlarida ular bilan birga takrorlanadi hamda jamiyatning umumiy madaniy mentalitetining bir qismi sifatida madaniy va lingvistik o'z-o'zini anglashning umumiy o'ziga xosligi haqida ma'lumot olib boradi [Teliya. 1999.24]. D.A.Xrolenko lingvokulturologiya metodologi-

yasining asosini tashkil eta oladigan manba va asoslar tizimini taklif qiladi: 1) dominant tahlil; 2) klaster tahlil; 3) konkordans yondashuv; 4) leksikografik tahlil.

Dominant tahlil metodologiyasi matnni yoki matnlar korpusini ifodalovchi chastotali lug'atlarning mavjudligini nazarda tutadi va eng ko'p uchraydigan leksemalar orasida etnik guruh, ijtimoiy guruh va lingvistik maydon dominantlarini bildiruvchi so'zlar bor, degan taxminiy fikrga asoslanadi. A.T.Xrolenko bu borada rus va ingliz qo'shiqlarining chastotali ro'yxatini misol sifatida keltiradi. Uning o'rganishicha, rus xalqi lirikasining chastotali lug'atida dominant nomlar orasida do'stlik mavzusidagi otlar yuqori darajada turadi. Ingliz xalq qo'shiqlarining chastotali lug'atida esa bu otlar dominant sifatida tasniflanmagan. Bu holat tadqiqotchining fikriga ko'ra, rus mentalitetida "do'st" mavzusi alohida o'rin egallashiga va tilshunoslar tomonidan alohida ta'kidlangan juda ishonchli dalil bo'lib xizmat qiladi [Xrolenko. 2006.153].

Klaster tahlil leksikografik tavsifdir, unda har bir so'zning boshqa so'zlar bilan barcha bog'lanishlari parallel o'rganiladi, klaster tarkibiga kiruvchi barcha leksemalar mufassal tahlil etiladi. Klasterda leksemalarning ma'lum bir to'plami ajratilib olinib, chuqur tahlilga tortiladi, har bir qism va verbal bog'lanishlar e'tiborga olinadi, madaniy tushunchali leksemalarga alohida diqqat qaratiladi [Xrolenko. 2006.161–162]. Matn tarkibidagi lingvokulturologik birliklarning qo'llanilish holati va bog'lanish xususiyatlarini tahlil etish jarayonida nazarda tutish lozim. Madaniyatlar tilning muhim birliklari kabi ularning tarkibiy qismlari darajasida taqqoslanishi mumkin. Bunda lingvomadaniy birlikning shakli va mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda turli madaniyatlarda bir-biriga to'g'ri keladigan yoki bir-biridan ajralib turadigan madaniyatlar o'rtasidagi barcha eng muhim korrelyasiya turlarini mantiqiy hisoblash mumkin [Gak. 1998.142–143].

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik va mantiqshunoslikda hal qiluvchi omil belgi va qurilma, shuningdek, ona tilida so'zlashuvchilarning ongi hisoblanadi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun nazariy jihatdan lingvistik birliklarning semantikasini aniq ajratish kerak, realliklarning semantikasini chuqur tavsiflash lozim. Tilni kompleks o'rganishda madaniyat bilan bog'liq holda ayrim metodlardan foydalanishni taklif qiladi. U lingvokulturologik soha tushunchasiga umumiy (invariant) ma'noga ega bo'lgan, ma'lum bir madaniy sohani tavsiflovchi til madaniyatlari majmuining iyerarxik tuzilishini kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. М., "Наука", 2004, 384 с.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Монография, М., 2008, 336 с.
3. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М., "Наука", 1981, 144 с.
4. Иванова С.В. Лингвокультурология: проблемы, поиски, решения. Монография, Иванова С.В., Чанишева 3.3., Уфа, БашГУ, 2010, 366 с.
5. Кузьмина Н.А. Интертекст и его роль в процессе эволюции поэтического языка. М., Редиторил УРСС, 2004, 272 с.
6. Культурология. XX век. Словарь. СПб., "Университетская книга", 1997, 640 с.
7. Мамаева А.Г. Лингвистическая природа и стилистические функции аллюзии. Автореф. дисс. канд. филол. наук, М., 1977, 24 с.
8. Телия В.Н. Типы языковых оценок. Связанное значение слова в языке. М., "Наука", 1981, 270 с.
9. Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии. Учебное пособие, М., «Флинта», "Наука", 2006, 184 с.

MUNDARIJA

MUHAMMAD RIZO ERNIYOZBEK O'G'LI OG'AHY TAVALLUDINING 214 YILLIGIGA

O'rozboyev Abdulla. Muhammad Rizo Ogahiy – jahoniy siymo.....	3
---	---

FIZIKA-MATEMATIKA

Xodjabekov Murodjon Usarovich. Yuldoshova Zarnigor Sayfullo qizi. Sterjenning harakatlanuvchi dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi tebranishlarini matematik modellashtirish masalasi.....	6
Do'sanov Ravshan Xalilovich, To'raev Xait Xudaynazarovich, Tojiev Panji Javlievich, Eshankulov Xasan Nurmatovich. Mineral to'ldiruvchilar asosida olingan organo-noorganik kompozitsion materiallarning reologik xossalari o'rganish.....	10
Xolikov Suyunjon Xamroqul ug'li, Tuxtaev Kuvonchbek Xamroqulovich, Sharipova Mo'xinnur Shokir kizi. Обратная задача определения нестационарного коэффициента для уравнения теплопроводности.....	14
Муминов Рамизулла Абдуллаевич, Саймбетов Ахмет Куванчбекович, Тошмуродов Ёркин Қахрамонович, Явқочдиев Махмуджон Отамуродович. Разработка и изготовление портативного дозиметра на основе кремниевых детекторов ядерного излучения.....	19
Атамуратов Алимардон Абдиримович. Полиномы на алгебраических графиках и аналог теоремы Бернштейна-Уолша.....	22
Аблокулов Шерзоджон Зокир угли. О распространении кромочной волны в тонкой вязкоупругой цилиндрической оболочке.....	28
Abdikarimov Nabijon Ibadullaevich. Двух жидкостной модели вязкой и вязкоупругой жидкости.....	35
Mirsaidov Mirziyod. Yuldashev Sharafitdin Sayfitdinovich. Yuldashev Fakhriddin Sharafitdin ug'li. Comparison of Wave Propagation Velocity in Soils, Generated by Train Traffic.....	39
Kholikov Suyunjon. Tukhtayev Kuvonch. A Differential Equation with a Piecewise Argument of the Parabolic Type.....	44

FALSAFA

Xamrayev Samariddin Baxrilloyevich. Yangi O'zbekistonda kasbiy etika institutini takomillashtirishning falsafiy tendensiyalari.....	50
Sulaymonova Shahnova Nodirovna. Ibn Miskaviyning ruhiy borliq va moddiy olam to'g'risidagi qarashlari.....	52
Kilichev Farxod Davlatyarovich. Falsafa va matematik tafakkur: dialektik bog'liqligining ilmiy-metodologik masalalari.....	54
Mansurov Farrux Najmiddinovich. Ya'qub Charxiy – naqshbandiya tariqatining nazariyotchisi.....	57
Tog'ayev Nodirjon Ergashevich. O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat barpo etishda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash muhim omil sifatida.....	59
Abbasova Maftuna Subxonovna, Abduxoligova Husniya. Globallashuv jarayonida sun'iy intellektning o'rni.....	62
Kuchkarova Gulnoz Raxmonovna. Movarounnahrda islom ta'limoti taraqqiyoti davri.....	64

IQTISODIYOT

Yunusova Shaxlo Raximjanovna. Tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishning me'yoriy-huquqiy asoslarining xususiyatlari.....	68
--	----

TILSHUNOSLIK

Mamajanova G'uncha Xamrayevna. Leksik kompetensiya va uni rivojlantirish usullari.....	77
Mustayeva Guldora Salohiddinova. Miraxmedova Zilola Erkinovna. Modallikning lingvistik jihatlarini tahlili.....	79
Xudayberganova Dildora Kulmatovna. Dostonlar tilida arxazmlarning nutqiy voqelanishi.....	82
Abdullayev Davronbek, Abdullayev Oxunjon. Ba'zi somatik iboralarning lingvomadaniy tahlili.....	85
Achilova Risolat Azamovna. Lingvokulturologik metodlar taraqqiyoti.....	87

ADABIYOTSHUNOSLIK

Matkarimova Salomat Ko'ziyevna. Kompozitsion stilistik usullar istifodasida navoiyga ergashish.....	90
Kuchkarov Tuxtamurod Olimovich. "Shiroq" rivoyati sujetining yuzaga kelish asoslari.....	93
Abdullayeva Xurshida Ne'matjonovna. Ingliz hamda o'zbek ertaklarida g'aroyib mifologik jang motivi tahlili.....	97
Berdiyeva Nazira Uralovna. Ko'chib yuruvchi qahramonlar: mikromakon va makromakon uyg'unligi.....	100
Yunusova Gulandom Samiyevna. Abdulqodir Giyloni – tasavvuf adabiyoti namoyandasi.....	102

PEDAGOGIKA

Saydaliyeva Feruza Xayritdinovna, Yusupova Sanobar Xasanovna. Maktab geometriyasini o'qitish jarayonida amaliy-tatbiqiy masalalar yechishga o'rgatish.....	105
Iskandarova Aybibi Raximbayeva. "O'zbek tili" darsida "adabiyot-ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba". "Badiiy tasvir vositalari" mavzusini o'tishga doir ba'zi mulohazalar.....	108
Qulmamatov Romazon Juma o'g'li. Bo'lajak muhandislarning kasbiy sifatlarini raqamlashtirishni ta'lim muhitida rivojlantirish.....	111
Tursunov Qahor Shonazarovich, Egamberdiyeva Ozoda Shuhrat qizi. Uzlaksiz fizika ta'limida nazariy metodlar asosida tebranishlarni o'rganish.....	114
Abdualimov Rufat Uchqun o'g'li. Yillik mashg'ulotlar davomida basketbol va stritbolchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasining o'zgarishi.....	119
O'rinov Shuhrat Suyunovich. Bo'lajak muhandis talabalarni "fizika"dan kasbga yo'naltirib o'qitishning metodik modeli.....	121
Madaminov Azimbek Egamberganovich. Yosh gandbolchi qizlarni texnik tayyorlashda harakatli o'yinlarning o'rni.....	126
Joldasova Kamila Jollibaevna. "Informatika" fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini individuallashtirish.....	130
Xodjaniyazov Sardor Umarovich, Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi. Axloqiy-estetik tarbiya jarayonining nazariy-metodologik jihatlarini.....	132
Shakirova Saida Tukhtajonovna. Ingliz tilini o'qitishda ertakning janr xususiyatlarini uslubiy tahlil qilish.....	134
Мамедова Шахло Душамбоевна. Методологические проблемы развития культурно-эстетической компетентности будущего учителя.....	137
Khudoyberdieva Gulchexra Isamidinova. Effectiveness of Profession-Oriented Foreign Language Teaching.....	140
Jumaniyazov Nizomjon. Teaching Stem in English: Issues and Proposals for Solutions.....	142
Ayturaev Majid Mavlanxanovich. Maximizing Student Learning Outcomes: Principles for Teaching Subjects in English to Academic Lyceum Students.....	145

ILMIY AXBOROT

Kilichev Bayramali Ergashovich. Buxoro toponimi va uning izohlanishi.....	148
Qodirova Shohsanam Boboxon qizi. Nemis va o'zbek tillarida "Wind" (shamol) leksemasining matnda qo'llanilishi.....	151
Tadjimatova Gulnoraxon Shavkatovna, Arslanbekova Shaxnozaxon Dilshatbek qizi. Ingliz va o'zbek tillarida "do'stlik"ni ifodalovchi maqollarni o'rganish masalalari.....	153
Shamsiddinova Zebo Fazliddinova. O'zbek tilidagi -di affiksi yordamida yasaladigan o'tgan zamon fe'l shaklining xitoy tilidagi ekvivalenti.....	155
Marufova Zulfiya Nabiyeвна. Muhammad Yusuf she'riyatida noodatiy bog'lanishlarning lingvopoetik xususiyatlari.....	158
Otajonova Lola. Saj' san'atining tarjimada saqlanishi asliyat badiiyati ifodasi sifatida.....	160
Raximova Ilmira Marksova. Topishmoqlarda somatik birliklarning qo'llanilishi.....	165
Abdusalomova Lobar Akbar qizi. Chingiz Aytmatovning "Oq Kema" qissasi poetikasida odorokolofonik motivlarning o'rni va roli.....	167
Jabborova Saodat Sattorovna. Ma'naviy salohiyat – ijtimoiy taraqqiyot manbayi.....	171
Xotamov Jaxongir Abdumalikovich, Ummatova Sevinch Zikrilla qizi. Radioastronomiyadan masalalar yechish usullari.....	173
Sayidova Muhabbat G'affarovna. Yoshlar dunyoqarashini tolerantlik asosida shakllantirishning asosiy omillari.....	176
Xudayberganov Samandar. Xonanda ovoziining jihatlarini.....	178
Bushuy Tatyana Anatolyevna. Features of Representation of Synonymy in Contrastive Lexicography in the Perspective of Phraseological Units.....	181
Adigezalova Malika Nadir qizi. The Genre of Elegy in Russian Literature and its Place in the Works of Huseyn Javid.....	184
Dushayeva Muyassar Pulatovna. Theory of Implicature: Foundation and Explication.....	189
Babaxanova Dilarom Akhmatkhanovna. Propositional Nomination and Sentence in Syntax.....	193

“ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**

Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**

Musahhihlar: **Тыпмова Тамара,**

Aybek Kalandarov

Ushbu songa mas’ul **Bahrom Abdullayev**

Terishga berildi: 19.12.2023

Bosishga ruxsat etildi: 29.12.2023.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.

Rizograf bosma usuli. Tayms garniturası.

Adadi 250. Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma №. 52

Hisob-nashriyot tabag‘i 25

Shartli bosma tabag‘i 23

UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi
Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986)
asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.

Telefon/faks: (0362)-224-66-01;

e-mail: ilmsarchashmalari@umail.uz

ilmsarchashmalari@mail.ru

Veb-sayt: www.ilmsarchashmalari.uz

Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>